

ISHTIROKCHILIK TUSHUNCHASI, UNING BELGILARI VA JINOYATGA DAXLDORLIKDAN FARQI



Xamidova Mahbuba Alijanovna

yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Akademik litsey

Annotatsiya. Mazkur maqolada ishtirokchilik tushunchasi, uning belgilari va va jinoyatga daxldorlikdan farqi bilan bog'liq masalalar tahlil etilgan. Bundan tashqari, muallif maqolada ishtirokchilikning obyektiv va subyektiv belgilariga doir ilmiy yondashuvlar hamda olimlarni fikrlarini tahlil etib o'zining taklif, tavsiyalarini bergan.

Kalit so'zlari: aqli raso, belgilar, jazo, javobgarlik, jinoyat, ikki yoki undan ortiq, shaxs, obyektiv, subyektiv.

Аннотация. В данной статье анализируются понятие соучастия, его признаки и отличия от причастности к преступлению. Кроме того, в статье автор проанализировал научные подходы к объективным и субъективным признакам участия и мнения ученых, представив свои предложения и рекомендации.

Ключевые слова: интеллектуальный, знаки, наказание, ответственность, преступление, двое или более, лицо, объективное, субъективное.

Abstract. This article analyzes issues related to the concept of complicity, its characteristics, and its difference from involvement in a crime. Furthermore, the author analyzed scientific approaches and scholars' opinions on the objective and subjective characteristics of participation in the article, providing their suggestions and recommendations.

Keywords: intellectual, signs, punishment, responsibility, crime, two or more, person, objective, subjective.

Bugungi kunda O'zbekistonda barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunday yangilanishlar bevosita huquqiy demokratik davlatni rivojlantirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada to'liqroq ta'minlash, shuningdek, shaxs uchun qonunlarga rioya qilishning huquqiy rag'batlantiruvchi tizimini yaratishga qaratilgan bo'lib, ana shunday ijobiy ishlardan biri jinoyat qonunchiligini liberallashtirish siyosati hisoblanadi.

Darhaqiqat, jamiyat hayotidagi tub o'zgarishlar, keskin burilishlar jinoyatchilik, ayniqsa, uning yangidan-yangi hamda eng xavfli ko'rinishlarining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Jinoyatchilik doimo o'zgarib turadigan va rivojlanadigan hodisadir. Jinoyatchilikning ayrim turlari, guruh-

lariga yuksak darajadagi jipslik, jinoyatchilik ichidagi va davlat ichidagi vertikal va gorizontal aloqalarning turg'unligi xosdir. Jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlik masalalari shular jumlasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonida [1] "Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlardan ko'zlangan maqsad – "Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish" belgilangan.

Darhaqiqat, hozirgi davrda, ayniqsa, jinoyatga daxldorlik uchun javobgarlik masalalari ko'pgina

davlatlarda keng yoyilgan. Mazkur jinoyatga qarshi kurash muammolari, iqtisodiy-siyosiy, sud-huquq islohotlarini amalga oshirish davrida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mazkur jinoyatning oqibatlarini xolis baholash, shaxsni, iqtisodiyotni va davlatni ushbu jinoiy ta'sirdan himoya qilish uchun maxsus chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurati tobora ortib bormoqda. Buning ahamiyati shundan iboratki, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, mamlakatda davom etayotgan salbiy hodisalar ta'siri ostida jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlik masalalarini hal etish bir qancha muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Bu nafaqat ushbu turdagi jinoyatlar latentlik darajasining oshib borayotganligidan dalolat beradi, balki aybdorlarning odil sudlov organlaridan yashirinishi va ularga nisbatan qonunda belgilangan ta'sir choralari qo'llanilmayotganligini ham ko'rsatadi. Jinoyatda ishtirokchilik va daxldorlik bilan bog'liq jinoyatlarning latentligi yuqoriligi boshqa jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslarning fosh etilishini ham murakkablashtiradi. Boshqacha aytganda, boshqa jinoyatlarni ochish va o'z vaqtida sudga yuborishning asosiy omillari ko'p jihatdan jinoyatga daxldor shaxslarning xulq-atvori va ularning xatti-harakatiga bog'liq bo'ladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi **“2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmonida “Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining** 16-maqسادi – jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish hamda huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish”[2] dan iborat bo'lib, bu ham, o'z navbatida, ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashni takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan.

Shu o'rinda aytish mumkinki, sud-huquq tizimini isloh qilish, o'z navbatida, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirishga qaratilgan bir qancha vazifalarni amalga oshirishni ham taqozo etadi. Bu vazifalar qatoriga jinoyat qonunchiligida belgilangan ishtirokchilikda sodir etilgan

jinoyatlar uchun jazo tayinlash masalalari yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borish ham nazarda tutiladi.

Ma'lumki, jinoyatchilik ijtimoiy hodisa sifatida insoniyatni har doim qiziqtirib kelgan va uning oldini olishga qarshi kurash olib borilgan. Ana shunday jinoyatlardan eng xavflisi ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat hisoblanadi.

Bu borada sud tergov faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik jinoyatlar ishtirokchilikda, bir guruh shaxslar tomonidan sodir etiladi. Shubhasiz, ishtirokchilikda faoliyat yuritayotgan bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi yuqoridir, chunki bir kishi tomonidan sodir etilgan harakatlardan ko'ra, bir guruh shaxslar tomonidan qilingan jinoyat ijtimoiy munosabatlarga ko'proq zarar yetkazadi.

Jinoyat huquqida jinoyat subyekti xususida so'z yuritilganda ishtirokchilik instituti, xususan, ishtirokchilarning turlari (masalan, bajaruvchi) ham nazarda tutiladi. Jumladan, Jinoyat kodeksining 27-moddasida “jinoyatda ishtirokchilik” tushunchasi mustahkamlangan. Unga ko'ra ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik [3] deb topiladi.

Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash masalalarining ayrim muammolari Q.R. Abdurasulova, B.J. Axrarov, Z.X. Gulyamov, R. Kabulov, M.M. Qodirov, M.H. Rustambayev, A.A. Otajonov, S. Niyozova, M. Usmonaliyev, A.S. Yakubov [4] kabi mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan va ushbu institutning ba'zi masalalariga oid fikrlar bildirilgan.

Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlash masalalariga oid ilmiy izlanishlar Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari, – G.I. Baymurzin, M. Blum, I.A. Bushuyev, G.B. Vittenberg, A.V. Zarubin, V.N. Ziryayev, N.S. Kosyakova, A.D. Makarov, P.N. Panchenko, N.A. Noskova, Ye.V. Ponomarenko, O.I. Semikina, M.X. Xabibullin, N.B. Esenbayev, P.S. Yani va boshqalar tomonidan ham olib borilgan [5]. Biroq ular o'z davlatlarining jinoyat qonunchiligiga mos holda ishtirokchilikning alohida shakllarini tadqiq etish yoxud uning jinoyatda ishtirokchilik institutidan farqlarini ko'rsatib berish bilan cheklanganlar.

Mamlakatimizdagi o'rganilayotgan mavzuga yaqin ishlarda ilmiy izlanishlar olib borgan ba'zi olimlarning qarashlari ilgari amalda bo'lgan qonunlarga asoslangan bo'lib, tabiiyki, bu ularning tahlil va xulosalarida ham o'z aksini topgan.

Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarning bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, u yoki bu jinoyatni kvalifikatsiya qilishda nafaqat qilmishning ishtirokchilikda sodir etilishi, balki qonuniylik va adolatlilik prinsiplariga asoslangan holda ishtirokchilikning aniq belgilari va shakllariga e'tibor berish lozim.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi JKning 28-moddasiga ko'ra, jinoyatni bevosita to'liq yoki qisman sodir etgan yoxud JKga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lmagan shaxslardan yoki boshqa vositalardan foydalanib, jinoyat sodir etgan shaxs bajaruvchi deb topiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, amaliyotda, yuqorida keltirilgan holatda jinoyat sodir etgan shaxs JK Maxsus qismi normasining ishtirokchilikda jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

"Ishtirokchilik" tushunchasiga MDH davlatlari qonunchiligida turlicha yondashilgan hamda bu tushunchaga Belarus, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston va boshqa respublikalar jinoyat qonunchiligida alohida bob ajratilgan[6]. Qolaversa, aksariyat MDH davlatlari jinoyat qonunchiligida "ishtirokchilik" tushunchasiga *ikki yoki undan ortiq aqli raso, jinoyat subyekti yoshiga yetgan jismoniy shaxsning* qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi, deb ta'rif berilgan.

Shundan kelib chiqib, nazarimizda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 27-moddasi birinchi qismi quyidagi tahrirda o'zgartirilishi maqsadga muvofiq:

"Ikki yoki undan ortiq aqli raso, jinoyat subyekti yoshiga yetgan jismoniy shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi".

Bundan tashqari, Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksining 44-moddasida oddiy ishtirokchilik jinoyatning obyektiv tomonini ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan birgalikda amalga oshirilishi sifatida belgilangan, bizningcha ham shunday. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 29-moddasida nazarda tutilgan oddiy ishtirokchilik

jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda birmuncha murakkablik keltirib chiqaradi. Amaliyotda esa ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda qilmishning oddiy yoki murakkab ishtirokchilikda sodir etilganligi ahamiyat kasb etmaydi. Shunga ko'ra, Jinoyat kodeksining 29-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda o'zgartirish jinoyat sodir etgan shaxslarning individual javobgarligini belgilashga, xususan, oddiy ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo tayinlashning liberallashtirishga xizmat qiladi.

Jinoyat huquqi nazariyasida boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan qilmishni sodir etgan shaxs eksess ishtirokchi deb topilishi, shuningdek, eksess ishtirokchi tomonidan sodir etilgan boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan qilmish uchun uning o'zi javobgar bo'lishi tushuntirilsa-da, biroq mazkur qoida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida o'z aksini topmagan.

Mazkur qoida ayrim MDH davlatlari, xususan, Rossiya Federatsiyasi (36-m.), Qozog'iston (30-m.), Moldova (48-m.), Ozarbayjon (35-m.), Gruziya (26-m.) va Armaniston (40-m.) respublikalari Jinoyat kodekslarida o'z aksini topgan.

Ishtirokchilik bilan sodir qilingan jinoyatlar eng xavfli va og'ir jinoyatlar hisoblanadi. Sud-tergov faoliyatini o'rganib chiqar ekanmiz, ko'pchilik jinoyatlar bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishini guvohi bo'lamiz.

Ishtirokchilik orqasidan sodir qilinayotgan jinoyat muqarrar obyektiv va subyektiv belgilarning majmuida izohlanib, biz yuqorida berib o'tgan "ishtirokchilik" tushunchasining mazmunini ochib beradi. Obyektiv belgilariga:

- 1) jinoyat sodir qilishda ikki yoki undan ortiq shaxsning ishtiroki;
- 2) jinoyat sodir etishda guruh a'zolari birgalikda harakat qilishidir.

Ishtirokchilik orqasidan jinoyat sodir qilishda ikki yoki undan ortiq shaxsning qatnashishi son jihatidan muhim belgi hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, jinoyat ishtirokchilikda sodir etilganda ishtirokchilarning barchasi jinoyat yoshiga yetgan va aqli raso shaxslar bo'lishi lozim.

Aksariyat hollarda ishtirokchilik orqasidan sodir qilinayotgan jinoyatlarda guruh a'zolari aqli raso va voyaga yetmagan shaxslarni jalb qilishadi.

Bunday holatlarda, uyushgan guruh a'zolari qilgan jinoyatlari bilan bir qatorda voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga jalb qilganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Bundan tashqari, ishtirokchilikda sodir qilinayotgan jinoyatlarda ishtirokchilarning harakati ham muhimdir.

Demak, ishtirokchilikda jinoyat sodir qilingan deb topilish uchun ijtimoiy xavfli xatti-harakatlar ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan birgalikda qasddan sodir qilingan bo'lishi kerak. Jinoyatni birgalikda sodir qilishda bir ishtirokchining harakati ikkinchisining bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Ishtirokchilikda sodir qilingan jinoyatda birgalikdagi harakat muhimdir. Ishtirokchilikda sodir qilingan jinoyatda har bir ishtirokchi, o'zining tegishli vazifasini bajarishi lozim. Ya'ni biri uyushtiradi, biri guruh tuzadi, boshqasi ma'lumot yig'adi, yana biri jinoyatga tayyorgarlik ko'radi, bajaruvchi esa ushbu jinoyatni amalga oshiradi.

Ishtirokchilikning subyektiv belgisi – bu ishtirokchilikda sodir qilingan jinoyat qasddan bajarilishi, ya'ni ishtirokchilar o'zaro birlashib qilyotgan ijtimoiy xavfli harakatlaridan qanday zararli oqibat kelib chiqishi mumkinligini ilgaridan bilgan va shuni istagan yoki istamagan bo'lsalar-da, unga ongli ravishda yo'l qo'ygan bo'lishlari kerak. Ishtirokchilardan biri to'g'ri qasd bilan biri egri qasd bilan jinoyat sodir qilishlari mumkin.

Jinoyatning har bir ishtirokchisi nafaqat o'z harakatining, balki boshqa ishtirokchilar harakatining ham mohiyatini anglashi lozim va bu, o'z navbatda, bunday jinoyatlarni qasddan bajarishning o'ziga xos xususiyatini ifoda etadi. Bunday harakatda ishtirokchilarning har biri turli maqsadda o'z qabih niyatlarini amalga oshirishlari mumkin. Masalan, odam o'ldirishda bajaruvchi tamagirlik maqsadini ko'zda tutsa, dalolatchi o'ch olish, rashk yoki boshqa maqsadlarni nazarda tutishi mumkin.

Ishtirokchilik qasddan qilingan jinoyat hisoblanib, jinoyatni sodir etishda ongli ravishda birlashib jinoiy maqsadga erishish uchun harakat qilinadi. Shuning uchun aqli noraso yoki ma'lum yoshga yetmagan shaxslar jinoyatda ishtirokchi bo'la olmaydilar.

Bu borada ishtirokchilikni jinoyatga daxldorlikdan farqlash lozim. Jinoyatga daxldorlik institutini samarali qo'llash imkoniyatlarini aniqlashda uning tushunchasi muhim jinoiy-huquqiy

ahamiyat kasb etadi. Biroq yuridik adabiyotlarda "jinoyatga daxldorlik instituti haqiqatda mavjud emas"[7], degan fikrlar ham bildirilgan. Jumladan, A.V.Naumov "jinoyatga daxldorlik tushunchasida hech qanday aniqlik yo'q", deya ta'kidlaydi. Uning fikricha, jinoyat huquqida jinoyatga daxldorlik tushunchasini belgilashga hech qanday hojat yo'q, chunki daxldorlikning shakllari mustaqil tarkibli jinoyatlar hisoblandi [8].

Ammo, muammoga shu nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, "jinoyatga daxldorlik instituti haqiqatda mavjud emas"ligini yoqlab chiqayotgan mualliflar fikriga qo'shila olmaymiz. Chunki jinoyatga daxldorlik bilan bog'liq qilmishlar haqiqatda mavjud va ularni inkor etib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda aksariyat huquqshunos olimlar jinoyatga daxldorlikni jinoyat huquqining mustaqil instituti sifatida tan oladilar [9].

Bizningcha, jinoyatga daxldorlik bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurash samaradorligi faqat uning huquqiy belgilarini qonunda belgilab berish orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu bois, jinoyatga daxldorlik institutining huquqiy belgilarini ochib beruvchi tushunchani ishlab chiqish va uni alohida norma orqali jinoyat qonunida mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

Yuridik adabiyotlarda jinoyatga daxldorlik tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Masalan, S.N.Sabanin jinoyatga daxldorlikni "jinoyat sodir etishda qatnashmagan, lekin sodir etilgan jinoyatni yashirganlik, tayyorgarlik ko'rilayotgan va sodir etilgan jinoyatlar haqida xabar bermaslik yoki jinoyatlarni bartaraf qilish va uning oldini olish choralarini ko'rish majburiyati yuklatilgan shaxslarning sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshilik ko'rsatmasligida ifodalanuvchi qasddan qilingan faoliyat"[10], sifatida tushunadi.

Biroq, berilgan ushbu ta'rif jinoyatga daxldor shaxslar deganda kimlarni nazarda tutish kerakligini aniq ochib bermagan. M.Usmonaliyev jinoyatga daxldorlik deganda, boshqa shaxslar tomonidan sodir etiladigan yoki sodir etilgan jinoyatda umuman ishtirok etmagan, ammo ularning jinoyatga tayyorgarlik ko'rayotganligi, jinoyat sodir etganligi haqida aniq bila turib, oldindan va'da bermagan holda, hokimiyat organlariga xabar qilmaslik, shuningdek jinoyatchini, jinoyat qurolini, jinoyat izlarini yoki jinoiy yo'l bilan

qo'lga kiritilgan narsalarni oldindan va'da bermagan holda yashirganlik"ni tushunish lozimligini ta'kidlaydi. Biroq, bizning fikrimizcha, mazkur ta'rif jinoyatga daxldorlikning barcha shakllarini o'zida qamrab olmagan, ya'ni ushbu ta'rifda jinoyatga yo'l qo'yish haqida ta'kidlanmagan [11].

Jinoyat kodeksining 31-moddasida jinoyatga daxldorlikning ikki turi nazarda tutilgan:

1) oldindan va'da bermagan holda jinoyat haqida xabar bermaslik;

2) oldindan va'da bermagan holda jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli va vositalarini, jinoyat izlarini yoki jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni yashirish.

Bu borada olimlarning fikriga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, daxldorlik boshqa shaxslar tomonidan sodir etiladigan yoki sodir etilgan jinoyatda umuman ishtirok etmagan, ammo ularning jinoyatga tayyorgarlik ko'rayotganligi, jinoyat sodir etganligi haqida aniq bila turib, oldindan va'da bermagan holda hokimiyat organlariga xabar qilmaslik, shuningdek, jinoyatchini, jinoyat qurolini, jinoyat izlarini yoki jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni oldindan va'da bermagan holda yashirganlikdan iborat, degan qarashlar mavjud [12].

M.H.Rustamboyevning fikricha, «jinoyatga daxldorlik – bu jinoiy daxldorlikning jinoyat haqida

oldindan va'da bermagan holda xabar qilmaslik, oldindan va'da bermagan holda jinoyatchini yashirganlik va oldindan va'da bermagan holda jinoyatga yo'l qo'yganlikda ifodalanuvchi bajaruvchining qilmishi bilan sababiy bog'lanishda bo'lmagan shakli» [13].

Jinoyat sodir etishda ishtirok etmagan, ammo unga aloqador shaxslar jinoyatga daxldor shaxslardir [14]. A.S.Yakubovning fikricha, «jinoyatga daxldorlik deganda, boshqa shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatda qatnashmasdan turib, ularga aloqadorlik tushuniladi [15]».

Xulosa qiladigan bo'lsak, ishtirokchilikda subyektiv tomonning mavjud bo'lishi uchun ishtirokchilikning qasdi zarur bo'lib, unga:

birinchidan, ishtirokchilarning har biri yoki ba'zilarining jinoiy faoliyatdan o'zaro xabardorligi;

ikkinchidan, har bir ishtirokchining boshqalar bilan birgalikda jinoyat sodir etishini yoki jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishini yoki unga yordam berishini anglab yetishi;

uchinchidan, umumiy jinoiy oqibatning kelib chiqishini istashi yoki unga ongli ravishda yo'l qo'yishi taalluqlidir.

Ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan jinoyatlarda ishtirokchilik bo'lmaydi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilgan «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risidagi 158-son farmoni <https://lex.uz/uz/docs/6600413>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son farmoni. <https://lex.uz/>
3. M.Usmonaliyev. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). – T.: «Nasaf», 2010. – B. 274.; Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus subyekti: O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYUI, 2005. – B. 92.
4. Гулямов З.Х. Преступления против правосудия / Под ред. и с предисловием д.ю.н., проф. У.Таджихонов. – Ташкент, 1997. – С. 40-41.; Ахраров Б.Ж., Сайдуллаев Ш. Иштирокчиликдан фарқлаш // Qonun himoyasida. – 2002. – № 6 (78). – Б. 18-19.; ва ҳоказо.
5. Баймурзин Г.И. Ответственность за прикосновенность к преступлению. – Алма-Ата: «Наука», 1968. – 188 с.; Блум М. Ответственность за укрывательство и недонесение по уголовным кодексам союзных Республики. – Рига, 1962. – 85 с.; Бушуев И.А. Ответственность за укрывательство преступлений и недоносительство. – М., 1965. – 140 с.; и др.
6. Ковалев М. И. Соучастие в преступление. – М.: ИНФРА-НОРМА, 2012. – С.56.
7. А.А.Отанов. Jinoyatga daxldorlik: jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar: Yurid. fan. nomz. ... dis. – T., 2009. – S. 18.
8. Наумов А. В. Российское уголовное право. Общая часть: Курс лекций. – М., 1996. – С. 315.
9. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ilmiy-amaliy sharhlar. – T., 1997. – B. 98.; Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik // Yakubov A.S., Kabulov R. va boshq. – T., 2005. – B. 56.; Уголовное право России: Учебник для вузов. В 2-х томах. Т.1. Общая часть / Под ред. А.Н. Игнатов и Ю.А.Красикова. – М., 1999. – С. 254.; Гаухман Л.Д. Квалификация преступлений: закон, теория, практика. – М., 2001. – С. 233.; и др.
10. Уголовное право России. // Под ред. С.Н.Сабанина. – Екатеринбург, 2001. – С. 176.
11. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – B. 301.
12. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – B. 301.
13. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. T. 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 336 b.
14. Mualliflar jamoasi. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Darslik / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. R.A.Zufarov. – T.: Adolat nashriyoti, 2019. – 110 b.
15. Якубов А. С. Правовая основа учение о преступлении: предпосылки, реальность, перспективы: Дис... д-ра юрид. наук. – Т., 1996. – С. 142.